



UDK: 316.752:343.35

Bobomurod J. ABDULLAYEV,

Bo'lim boshlig'i, Qo'riqlash bosh boshqarmasi, Toshkent, O'zbekiston
E-mail: abobomurod187@gmail.com, ORCID:0000-0002-8654-9277

TDTrU professori, f.f.d J.Ramatov taqrizi asosida

YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARDA ANTIKORRUPSIYA ONGINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOYIY-FALSAFIY YO'NALISHLARI

Annotatsiya

Maqolada Yangi O'zbekistonda yoshlarda antikorrupsiya ongini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tahlil qilinadi. Unda korruptsiyaning ijtimoiy mohiyati, yoshlar ongiga ta'siri hamda halollik, adolat, qonuniylik va fuqarolik mas'uliyati kabi qadriyatlarning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, yoshlar o'rtasida korruptsiyaga qarshi barqaror immunitetni shakllantirishning ta'limiy, ma'naviy va ijtimoiy mexanizmlari asoslanadi.

Kalit so'zlar: korruptsiya, antikorrupsiya ongi, yoshlar, ijtimoiy falsafa, axloqiy ong, huquqiy ong, integritet, halollik, fuqarolik mas'uliyati, ijtimoiy adolat, ma'naviy immunitet, ta'lim, raqamli muhit.

SOCIO-PHILOSOPHICAL DIRECTIONS FOR DEVELOPING ANTI-CORRUPTION AWARENESS AMONG YOUTH IN NEW UZBEKISTAN

Annotation

This article analyzes the socio-philosophical aspects of developing anti-corruption awareness among young people in New Uzbekistan. It examines the social nature of corruption, its impact on youth consciousness, and the significance of such values as integrity, justice, legality, and civic responsibility. The article also substantiates educational, spiritual, and social mechanisms for developing sustainable anti-corruption immunity among young people.

Keywords: corruption, anti-corruption awareness, youth, social philosophy, moral consciousness, legal consciousness, integrity, honesty, civic responsibility, social justice, spiritual immunity, education, digital environment.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ НАПРАВЛЕНИЯ ФОРМИРОВАНИЯ АНТИКОРРУПЦИОННОГО СОЗНАНИЯ МОЛОДЁЖИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В статье анализируются социально-философские аспекты формирования антикоррупционного сознания молодёжи в Новом Узбекистане. Раскрываются социальная природа коррупции, её влияние на сознание молодёжи, а также значение таких ценностей, как честность, справедливость, законность и гражданская ответственность. Обосновываются образовательные, духовно-нравственные и социальные механизмы формирования у молодёжи устойчивого антикоррупционного иммунитета.

Ключевые слова: коррупция, антикоррупционное сознание, молодёжь, социальная философия, нравственное сознание, правосознание, добросовестность, честность, гражданская ответственность, социальная справедливость, духовный иммунитет, образование, цифровая среда.

Kirish. Bugungi globallashuv va institutsional transformatsiya sharoitida korruptsiya hodisasi alohida huquqbuzarliklar yig'indisi sifatida emas, balki davlat boshqaruvi samaradorligi, ijtimoiy adolat, huquq ustuvorligi, fuqarolik ishonchi, iqtisodiy barqarorlik hamda jamiyatning ma'naviy-axloqiy qiyofasiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi murakkab ijtimoiy-falsafiy fenomen sifatida namoyon bo'lmoqda. Korruptsiyaning xavfliligi uning faqat moddiy resurslarni noqonuniy o'zlashtirish bilan cheklanmasdan, ijtimoiy munosabatlarning me'yoriy asoslarini yemirishi, davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonch mexanizmlarini zaiflashtirishi, halol mehnat va qonuniy faoliyatning ijtimoiy qiymatini pasaytirishi hamda shaxs ongida noqonuniy manfaatni "me'yoriy" xatti-harakat sifatida qabul qilish xavfini kuchaytirishi bilan belgilanadi. Shu ma'noda korruptsiyaga qarshi kurashni faqat jazolash, nazorat va huquqiy cheklovlar tizimi orqali talqin qilish yetarli emas; mazkur jarayonning barqaror samaradorligi jamiyat a'zolarida halollik, adolat, mas'uliyat, qonuniylik, fuqarolik burchi va ijtimoiy manfaat ustuvorligini qaror toptirish bilan chambarchas bog'liqdir.

Korruptsiya tushunchasining ilmiy talqinida ham uning ko'p qirrali tabiatini ko'rish mumkin. Amerikalik siyosatshunos J. S. Nye korruptsiyani "davlat hokimiyatidan shaxsiy manfaat yo'lida suiiste'mol qilish" sifatida tavsiflaydi [1]. Mazkur yondashuvning e'tiborga molik jihati shundaki, unda korruptsiya davlat hokimiyati vakolatlarining shaxsiy manfaatga bo'ysundirilishi sifatida talqin qilinadi. Biroq zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tahlil nuqtayi nazaridan korruptsiyani faqat mansabdor shaxsning individual xatti-harakati sifatida tushuntirish chegaralangan yondashuv bo'lib, uning institutsional, madaniy va aksiologik ildizlarini ham ochib berishni talab etadi. Chunki korruptsiya xatti-harakatning mavjudligi uchun faqat noqonuniy manfaatga intilish emas, balki bunday xatti-harakatni qabul qiluvchi yoki unga befarq munosabatda bo'luvchi ijtimoiy muhit, nazoratning zaifligi, javobgarlik mexanizmlarining samarasizligi va ayrim hollarda korruptsiyaning kundalik hayotda "odatdagi holat" sifatida qabul qilinishi ham muhim shart-sharoit yaratadi.

Korruptsiyaning ijtimoiy mohiyatini yanada chuqurroq anglash uchun uning aksiologik tabiatiga e'tibor qaratish lozim.

Korrupsiya, avvalo, qadriyatlar tizimidagi deformatsiya sifatida namoyon bo'ladi: shaxsiy manfaat jamoat manfaatidan ustun qo'yiladi, halollik pragmatik manfaatga almashtiriladi, qonuniylik esa muayyan vaziyatda chetlab o'tilishi mumkin bo'lgan formal talab sifatida qabul qilina boshlaydi. Shu sababli antikorrupsiya ongi tushunchasini faqat huquqiy bilimlar majmui bilan chegaralash metodologik jihatdan to'g'ri emas. Antikorrupsiya ongi - shaxsning korrupsiyaning mohiyati, sabablari va oqibatlarini anglashiga, korrupsiyaviy xatti-harakatlarga nisbatan axloqiy-huquqiy baho bera olishiga, noqonuniy manfaatni rad etishiga, halollik va adolatni shaxsiy hamda ijtimoiy qadriyat sifatida qabul qilishiga, shuningdek, o'zining fuqarolik mas'uliyatini anglab, korrupsiyaga qarshi ijtimoiy faol pozitsiyani egallashiga imkon beruvchi bilim, e'tiqod, qadriyat, munosabat va xulq-atvor orientatsiyalarining yaxlit tizimidir. Demak, antikorrupsiya ongining shakllanishi gnoseologik, aksiologik, axloqiy, huquqiy va prakseologik komponentlarning o'zaro birligini taqozo etadi.

Mazkur masalaning yoshlar bilan bog'liqligi ayniqsa muhimdir. Chunki yoshlar jamiyatning nafaqat kelajakdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy subyekti, balki bugungi ijtimoiy munosabatlarning faol ishtirokchisi hisoblanadi. S. O. Sihombingning yoshlarning korrupsiya va halollik haqidagi tasavvurlarini o'rgangan tadqiqotida "Youth, which is the hope of the nation, plays an important role in the fight against corruption", ya'ni yoshlar korrupsiyaga qarshi kurashda muhim ijtimoiy kuch ekanligi ta'kidlanadi [3]. Tadqiqotchining mazkur fikri e'tiborga molik jihatdan shundaki, yoshlarni antikorrupsiya siyosatining oddiy "obyekti" emas, balki uning faol subyekti sifatida ko'rishga metodologik imkon yaratadi. Muallif tadqiqotida 454 nafar yosh respondentning javoblari tahlil qilinib, ularning 51,76 foizi "integrity" - halollik va yaxlit axloqiylik mazmunidagi tushunchani to'liq izohlay olmagani aniqlangan; ayni paytda halollik ushbu tushunchaning eng muhim belgisi sifatida qayd etilgan [3]. Bu natija mazkur maqola uchun alohida nazariy ahamiyatga ega: yoshlar ongida korrupsiyaga qarshi munosabatni shakllantirish uchun korrupsiyaning salbiy oqibatlarini tushuntirishning o'zi kifoya qilmaydi; uning muqobili bo'lgan halollik, adolat, mas'uliyat va fuqarolik burchi kabi ijobiy qadriyatlarni ongli ravishda shakllantirish zarur.

Sihombing tadqiqotining yana bir muhim jihati shundaki, muallif halollikni tayyor va o'zgarmas psixologik xususiyat emas, balki ijtimoiy tajriba orqali o'zlashtiriladigan xulq-atvor modeli sifatida ko'radi. Tadqiqotda "Integrity is a learned type of behavior", ya'ni halollik o'rganiladigan xulq-atvor turi ekanligi qayd etiladi [3]. Mazkur fikrni ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan rivojlantirar ekanmiz, yoshlarning antikorrupsiya ongini shakllantirish jarayoni bir martalik targ'ibot tadbiri yoki alohida fan doirasidagi mashg'ulot bilan cheklanmasligi, balki oila, ta'lim muassasasi, tengdoshlar muhiti, ommaviy axborot vositalari, raqamli makon va davlat institutlari o'rtasidagi uzviy tarbiyaviy hamkorlik asosida davomiy jarayon sifatida tashkil etilishi lozim, degan xulosaga kelish mumkin. Ayniqsa, shaxsning kundalik hayotida kuzatiladigan "kichik" korrupsiyaviy xatti-harakatlarga nisbatan murosasizlik shakllanmas ekan, yirik korrupsiyaga qarshi barqaror ijtimoiy immunitetni qaror toptirish qiyin.

Zamonaviy tadqiqotlarda antikorrupsiya ta'limining mazmuni ham aynan qadriyat va xulq-atvor o'rtasidagi uzviylikni ta'minlashga yo'naltirilmoqda. A. R. Zulaiha, A. H. Hernawan va L. Dewi antikorrupsiya xarakter tarbiyasini "a strategic effort to create a generation with integrity", ya'ni "halollik va yaxlitlikka ega avlodni shakllantirishning strategik vositasi" sifatida baholaydilar [4]. Mualliflarning 57 611 nafar respondentni qamrab olgan tadqiqoti halollik, mas'uliyat, intizom va mustaqillik kabi sifatlarini antikorrupsiya ta'limining

muhim natijalari sifatida ko'rsatadi [4]. Ushbu tadqiqotning e'tiborga molik jihati shundaki, unda antikorrupsiya tarbiyasi faqat maxsus "korrupsiya" mavzusidagi bilimlarni berish bilan emas, balki ta'lim muhitining o'zida halollik va mas'uliyat me'yorlarini qaror toptirish bilan bog'lanadi. Demak, ta'lim muassasasida baholashning adolatligi, akademik halollik, topshiriqlarni mustaqil bajarish, o'qituvchi va talabning o'zaro mas'uliyati ham antikorrupsiya ongini shakllantiruvchi mikroijtimoiy mexanizmlar sifatida qaralishi mumkin.

Yoshlarning antikorrupsiya madaniyatini shakllantirishda zamonaviy kommunikatsiya vositalarining imkoniyatlari ham alohida ilmiy ahamiyatga ega. M. Voronkova va I. Savchenko tadqiqotida yoshlar o'rtasida antikorrupsiya madaniyatini shakllantirishda innovatsion vositalar, raqamli ta'lim resurslari va fuqarolik faolligidan foydalanish masalalari tahlil qilinadi hamda universitet talabalari orasidagi empirik tadqiqot natijalarida ekani qayd etiladi [5]. Mazkur yondashuvning nazariy qiymati shundan iboratki, raqamli avlodning ijtimoiylashuv xususiyatlarini hisobga olmasdan antikorrupsiya tarbiyasining zamonaviy modelini yaratish mumkin emas. An'anaviy ma'ruza va targ'ibot shakllari bilan bir qatorda keys-stadi, muammoli vaziyatlar, debat, raqamli kontent, interaktiv platformalar, ijtimoiy loyihalar, virtual muhokamalar va yoshlarning o'zlari tomonidan yaratiladigan media mahsulotlardan foydalanish antikorrupsiya g'oyalarning shaxsiy tajribaga aylanishiga xizmat qilishi mumkin.

O'zbekiston sharoitida alohida dolzarblik kasb etadi. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashishning institutsional va huquqiy asoslari 2017-yil 3-yanvarda qabul qilingan O'RQ-419-son "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun bilan mustahkamlangan bo'lib, unda qonuniylik, fuqarolar huquq va manfaatlarining ustuvorligi, ochiqlik va shaffoflik, davlat va fuqarolik jamiyati hamkorligi, korrupsiyaning oldini olish choralarining ustuvorligi hamda javobgarlikning muqarrarliligi kabi fundamental tamoyillar belgilangan [6]. Keyingi bosqichlarda korrupsiyaga qarshi kurashishning institutsional mexanizmlari takomillashtirilib, 2020-yilda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining tashkil etilishi mazkur siyosatni muvofiqlashtirishning yangi institutsional bosqichini boshlab berdi [7]. Shuningdek, manfaatlar to'qnashuvini tartibga soluvchi 2024-yilgi qonunchilikning qabul qilinishi korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan huquqiy mexanizmlarning bosqichma-bosqich kengayib borayotganini ko'rsatadi [6].

O'zbekistonning antikorrupsiya siyosatini yoshlar ongini shakllantirish bilan bog'lash xalqaro huquqiy-me'yoriy yondashuvlarga ham mos keladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi korrupsiyaning oldini olishda fuqarolik jamiyati ishtirokini, jamoatchilik xabardorligini va ta'lim dasturlarini rivojlantirishni nazarda tutadi; Konvensiyaning 13-moddasida korrupsiyaga nisbatan murosasizlikni shakllantirishga qaratilgan ommaviy axborot faoliyati va "public education programmes, including school and university curricula" - maktab va universitet o'quv dasturlarini qamrab oluvchi jamoatchilik ta'limi dasturlari alohida qayd etilgan [8]. BMT doirasidagi keyingi hujjatlarda ham yoshlar korrupsiyaga qarshi kurashishning muhim subyekti sifatida e'tirof etilib, ularning huquqiy va axloqiy madaniyatini shakllantirish, ta'lim tizimida halollik tamoyillarini rivojlantirish va yoshlarni antikorrupsiya siyosatini ishlab chiqish jarayonlariga jalb etish zarurligi ta'kidlangan [9].

Yangi O'zbekistonda yoshlarda antikorrupsiya ongini shakllantirish masalasi huquqiy-ma'muriy chora-tadbirlar doirasidan chiqib, jamiyatning ma'naviy-axloqiy transformatsiyasi, fuqarolik identifikatsiyasi, qadriyatlar tizimi

va ijtimoiy mas'uliyatining rivojlanishi bilan bog'liq kompleks ijtimoiy-falsafiy muammoga aylanmoqda. Ushbu jarayonda korrupsiyani faqat jinoyat yoki huquqbuzarlik sifatida emas, balki shaxsiy manfaat va ijtimoiy manfaat o'rtasidagi ziddiyat, qadriyatlar deformatsiyasi, ishonchning yemirilishi, institutsional mas'uliyatsizlik va fuqarolik pozitsiyasining zaiflashuvi bilan bog'liq fenomen sifatida anglash muhimdir. Aynan shu nuqtayi nazardan antikorrupsiya ongini shakllantirishning bosh maqsadi yoshlarni korrupsiyadan qo'rqadigan shaxsga emas, balki korrupsiyani axloqan nomaqbul, ijtimoiy jihatdan xavfli, huquqiy jihatdan noqonuniy va taraqqiyotga zid hodisa sifatida angelaydigan, uni kundalik hayotida qar etadigan hamda jamiyatda halollik va adolat muhitini qator toptirishda faol ishtirok etadigan fuqaroga aylantirishdan iboratdir. Demak, mazkur muammoning ijtimoiy-falsafiy tadqiqi "bilim → qadriyat → e'tiqod → munosabat → xulq-atvor → fuqarolik faolligi" uzviyligini ta'minlovchi yaxlit mexanizmni nazariy jihatdan asoslashni talab etadi. Shu jihatdan mavzuning dolzarbligi korrupsiyaga qarshi kurashning institutsional mexanizmlarini yoshlar ongining ma'naviy-aksiologik transformatsiyasi bilan integratsiyalash, antikorrupsiya madaniyatini ta'lim va ijtimoiylashuv jarayonining uzviy komponentiga aylantirish hamda halollikni shaxsiy fazilatdan ijtimoiy norma va fuqarolik mas'uliyati darajasiga ko'tarish zarurati bilan belgilanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Yoshlarda antikorrupsiya ongini shakllantirish masalasi zamonaviy ijtimoiy-falsafiy, siyosiy-huquqiy va pedagogik tadqiqotlarda muhim yo'nalishlardan biri sifatida o'rganilmoqda. J. S. Nye korrupsiyani davlat hokimiyatidan shaxsiy manfaat yo'lida foydalanish bilan bog'laydi [1]. R. Klitgaard esa korrupsiyaning institutsional omillarini monopoliya, vakolat va hisobdorlik o'rtasidagi nisbat orqali izohlaydi [2]. S. O. Sihombing tadqiqotlarida yoshlarning korrupsiya va halollik haqidagi qarashlari tahlil qilinib, antikorrupsiya madaniyatini shakllantirishda yoshlarning faol ijtimoiy subyekt sifatidagi o'rni asoslanadi [3]. A. R. Zulaiha va hammualliflar antikorrupsiya ta'limini halollik, mas'uliyat, intizom va fuqarolik fazilatlarini rivojlantirish vositasi sifatida baholaydilar [4].

O'zbekiston sharoitida korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy va institutsional asoslari "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun hamda tegishli davlat dasturlari orqali mustahkamlangan [5]. Mazkur manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, yoshlar antikorrupsiya ongini shakllantirish faqat huquqiy bilim berish bilan cheklanmasdan, halollik, adolat,

qonuniylik, ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik faolligi kabi qadriyatlarini shakllantirishning yaxlit tizimi sifatida tashkil etilishi lozim.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda yoshlarda antikorrupsiya ongini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini ochib berish maqsadida tizimli, dialektik, aksiologik, qiyosiy va mantiqiy-tahliliy metodlardan foydalanildi. Mazkur metodlar orqali korrupsiyaning ijtimoiy omillari, yoshlar ongiga ta'sir etuvchi ma'naviy-axloqiy omillar hamda antikorrupsiya qadriyatlarini shakllantirish mexanizmlari kompleks ravishda tahlil qilindi. Tadqiqotda, shuningdek, analiz, sintez, umumlashtirish va ilmiy xulosa chiqarish usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yoshlarda antikorrupsiya ongini shakllantirish huquqiy bilim, axloqiy qadriyat va fuqarolik mas'uliyatining uyg'unligi asosida amalga oshirilishi lozim. Korrupsiyaga qarshi barqaror immunitetni shakllantirishda halollik, adolat, qonuniylik va mas'uliyat kabi qadriyatlarini ta'lim-tarbiya jarayoniga tizimli singdirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatini shakllantirish antikorrupsiya madaniyatining muhim shartlari sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Yangi O'zbekistonda yoshlarda antikorrupsiya ongini shakllantirish jamiyatning huquqiy, ma'naviy va axloqiy taraqqiyotini ta'minlovchi muhim omildir. Korrupsiyaga qarshi barqaror immunitetni shakllantirish uchun yoshlar ongida halollik, adolat, qonuniylik, mas'uliyat va fuqarolik faolligi kabi qadriyatlarini mustahkamlash zarur.

Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- ta'lim jarayonida antikorrupsiya mazmunidagi mavzularni amaliy va interaktiv usullar asosida kuchaytirish;
- yoshlarda huquqiy va axloqiy madaniyatni muntazam rivojlantirish;
- korrupsiyaga qarshi targ'ibotda raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish;
- yoshlarni jamoatchilik nazorati va ijtimoiy loyihalarga faol jalb etish;
- ta'lim muassasalarida akademik halollik va shaffoflik tamoyillarini yanada mustahkamlash.

Korrupsiyasiz jamiyatni shakllantirishning eng muhim sharti - qonuniy mexanizmlar bilan bir qatorda, halollikni shaxsiy e'tiqod va ijtimoiy qadriyat darajasiga ko'tarishdir.

ADABIYOTLAR

1. Nye, J. S. Corruption and Political Development: A Cost-Benefit Analysis // *American Political Science Review*. – 1967. – Vol. 61, No. 2. – P. 417–427.
2. Klitgaard, R. *Controlling Corruption*. – Berkeley: University of California Press, 1988. – 230 p.
3. Sihombing, S. O. Youth Perceptions toward Corruption and Integrity: Indonesian Context // *Kasetsart Journal of Social Sciences*. – 2018. – Vol. 39, No. 2. – P. 299–304.
4. Zulaiha, A. R., Hernawan, A. H., Dewi, L. The Effect of Anti-Corruption Character Education on Educational Integrity // *Inovasi Kurikulum*. – 2025. – Vol. 22, No. 1. – P. 133–146.
5. Voronkova, M., Savchenko, I. Innovative Approaches to the Formation of an Anti-Corruption Culture among Young People: Modern Tools and Methods // *Journal "U". Economy. Management. Finance*. – 2024. – No. 2. – P. 347–356.
6. O'zbekiston Respublikasi. Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida: O'RQ-419-son Qonun. – 2017-yil 3-yanvar.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida: PF-6013-son Farmon. – 2020-yil 29-iyun.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida: PQ-4761-son qaror. – 2020-yil 29-iyun.